# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 16 755,8 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 16 481,2 mlrd. so‘mni (103,8 %), o‘rmon xo‘jaligi 253,5 mlrd. so‘mni (103,2 %), baliqchilik xo‘jaligi 21,1 mlrd. so‘mni (72,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,9 % ni tashkil qildi.



**16 755,8 mlrd. so‘m**

**16 481,2** **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

**253,5** **O‘rmon xo‘jaligi**

**21,1** **Baliqchilik xo‘jaligi**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, *mlrd. so‘m*



2024- yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va

baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (1 596,8 mlrd. so‘m) Chiroqchi (1 570,1 mlrd. so‘m) Kitob (1 417,1 mlrd. so‘m) Qamashi (1 324,4 mlrd. so‘m) Yakkabog' (1 312,8 mlrd. so‘m) Kasbi (1 188,6 mlrd. so‘m) va Qarshi (1 125,1 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shahrisabz shahar (1 33,9 mlrd. so‘m) va Qarshi shahar (157,8 mlrd. so‘m)larni keltirib o‘tish mumkin.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

**Hosil yig‘imi**. 2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 170,7 ming tonna sabzavot (4,5 foizga ko‘p ) yetishtirildi.

## 2024- yilning yanvar-iyunida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

| | Fermer xo‘jaliklari | | Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | | Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Sabzavotlar | 21 044 | 122,6 | 147 550 | 101,8 | 2 139 | 168,3 |



## Dehqonchilik

2024- yilning yanvar–iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 995,7 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 30,7 % ni tashkil qildi.

# Sabzavotlar

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




Fermer xo‘jaliklari   Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari   Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 170,7 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 86,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, *tonna*





## Chorvachilik

2024- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 11 284,3 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 69,3 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 152,9 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko‘p), 590,1 ming tonna sut (3,1 % ga ko‘p), 254,7 mln. dona tuxum (5,1 % ga ko‘p) va 822,8 tonna baliq 31,9 % ga kam) ovlandi.



## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

| | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, %* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda),** ***ming tn.*** | **152,9** | **104,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 4,1 | 129,2 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 147,1 | 103,9 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,7 | 95,3 |
| **Sut,** ***ming tn.*** | **590,1** | **103,1** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 23,5 | 118,9 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 562,5 | 102,4 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 4,1 | 119,1 |
| **Tuxum,** ***mln. dona*** | **254,7** | **105,1** |
| *shu jumladan*: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 7,7 | 97,8 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 169,1 | 100,7 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 77,9 | 117,2 |

## Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 152,9 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,4 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 96,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



### Qashqadaryo viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda)



## Sut

**Hajmi,** *ming tonna.*




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,*** *% da*




2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 590,1 ming tonna sut (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 3,1 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 95,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



**Qashqadaryo viloyati bo'yicha sut yetishtirish hajmi,** *tonna*



## Tuxum

**Hajmi,** *mln.dona*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 254,7 mln.dona tuxum (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 5,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 66,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi,** *ming dona*



## Baliq

**Hajmi,** *tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 822,8 tonna (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 31,9 % ga kam ) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 62,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.

**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi,** *tonna*



# Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 8,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 6,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 15,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 79,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 70,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 24,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni,** ***ming bosh***




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 718,9 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023- yilning 1- iyuliga nisbatan 30,7 ming boshga (1,8 %) ko‘paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 92,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, *ming bosh*



## Sigirlar

**Soni, *ming bosh***




**O‘sish sur’ati, *% da***




***Bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 557,4 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2023- yilning 1- iyuliga nisbatan 12,9 ming boshga (2,4 %) ko‘paydi.

- sigirlar bosh sonining 90,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning bosh soni, *ming bosh*



## Qo‘y va echkilar

Soni, *ming bosh*




O‘sish sur’ati, *% da*




***Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2024- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 4 944,2 ming boshga yetdi.
- qo‘y va echkilarning bosh soni 2023- yilning 1- iyuliga nisbatan 132,7 ming boshga (2,8 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh soning 84,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning bosh soni, *ming bosh*



# Otlar

**Soni,** ***bosh***




**O'sish sur'ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 36 337 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2023- yilning 1- iyuliga nisbatan 1 182 boshga (3,4 %) boshga ko'paydi.
- otlar bosh sonining 78,3 % i dehqon va nomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha otlarning bosh soni,** ***bosh***



# Parrandalar

### Soni, *ming bosh*




### O'sish sur'ati, *% da*




### *Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi*




2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 6 208,2 ming boshga yetdi.

- parrandalar bosh soni 2023- yilning 1- iyuliga nisbatan 251,0 ming boshga (4,2 %) ko'paydi.

- parrandalar bosh soning 70,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

Fermer xo'jaliklari   Dehqon va tomorqa xo'jaliklari   Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

## Qashqadaryo viloyati bo'yicha parrandalarning bosh soni, *ming bosh*

